



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



SUN'iy INTELLEKTNING ZAMONAVIY TAHDIDLARI

Askarova Shahlo Muhammadaliyevna

Farg'onan davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasи

Odinaxon Abdusamatova Abdusalom qizi

talaba

Annotatsiya: *Ma'lumki, jamiyatimizning barcha sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalari keng foydalanib kelinmoqda. Mazkur maqolada sun'iy intellektning mohiyati, paydo bo'lish tarixi, ularning turlari va insoniyat hayotidan tutgan salbiy va ijobjiy o'rinnari xususida ma'lumotlar yoritilgan. Zero, ushbu texnologiyalar barchamiz uchun o'ziga xos ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, texnologiya, Alan Tyuring, Jon Makkarti, dasturlar, kuchsiz sun'iy intellekt, kuchli va super sun'iy intellekt, tanazzul.*

XXI asr – axborot texnologiyalari asri. Har kuni yangidan yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bugungi kun talabi, desak shu o'rinda mubolag'a bo'lmaydi. Kundalik hayotimizda foydalanayotgan eng kichik elementlar taraqqiyotning yuksak namunasidir. Shu borada, ko'p duch kelayotgan sun'iy intellektlar to'g'risida mulohaza yuritsak : uning qay tariqa paydo bo'lgani, turlari hamda zamonaviy jamiyatimizda tutgan o'rni xususida so'z yuritamiz.

Avvalo, "sun'iy" so'zining ma'nosiga diqqat qaratamiz : u kelib chiqishiga ko'ra tabiiy bo'limgan narsani, ya'ni inson qo'li bilan yaratilgan barcha turdag'i narsalarni nazarda tutadi. "Intellekt" esa qaror qabul qila olish qobiliyati, bilish, idrok qilish, qolaversa, yig'ilgan tajriba hamda ko'nikmalar vositasida vaziyatlarga moslasha olish kabi ta'riflarni o'zida mujassam etadi. Biz sun'iy intellekt deganda, robotlarni ko'z oldimizga keltirishimiz tabiiy . Biroq bu tushuncha bundan-da kengroq ma'noni, bundan-da ko'proq va mukammalroq narsalarni anglatadi.

Sun'iy intellekt – informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda, inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar : tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'llanadi.

Sun'iy intellektning paydo bo'lish tarixiga nazar tashlasak, ushbu murakkab jarayon o'tgan asrning o'rtalaridan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Ingliz matematigi va kriptografi Alan Tyuring (1912-1954) mazkur yo'nalishda ilk tadqiqotlarni amalga oshirgan. 1950-yil texnologiyalar imkoniyatlari insonlarni aql jihatdan ortda qoldirishi haqida savollarga asoslangan maqolani chop etgan va o'zining "Tyuring testi" tarkibini ishlab chiqqan. Ushbu maqoladan so'ng sun'iy intellekt sohasida yangi tadqiqotlar amalga oshirila boshlangan. Sun'iy intellekt atamasi 1956-yilga kelib paydo bo'ldi. Shu yilning yozida AQShning Dartmut



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



universitetida sun'iy tafakkur masalalari bo'yicha anjuman bo'lib o'tdi. Mazkur anjumanda ma'ruza qilgan amerikalik informatik olim Jon Makkarti (1927-2011) "Artificial Intelligence" ("Sun'iy intellekt") atamasi muallifi sifatida tarixda o'ziga xos nomga sazovor bo'lgan.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari hayotning barcha sohalarida keng tarqalgan. Qo'limizdagi smartfondan tortib avtomobilgacha sun'iy intellekt bilan ta'minlanmoqda. Chunki u insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizimlardan iborat. Uning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatlarga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Artificial Intelligence dunyosi deyarli cheksizdir, u o'sib borayotga muhandislik va kompyuter imkoniyatlari hisobiga katta ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bo'lib bormoqda.

Hozirda texnologiyalar shu darajada jadal rivojlanib bormoqdaki, inson aqlidan o'zib ketish xususiyati ham ortmoqda. Ular raqamlarni qayta ishlash hamda intellektual harakatlarni amalga oshirish sohalariga keng quloch yozmoqda.

Misol uchun: 1979-yil Narda o'yinida BKG 9.8 dasturi amaldagi jahon championi Luiji Bilani 7: 1 hisobida mag'lub etdi.

1997-yil shaxmat o'yinida Deep Blue kompyuteri Rossiyalik championni mag'lubiyatga uchratdi. O'sha davrda dunyoning eng kuchli shaxmatchisi ustidan g'alaba qozongan birinchi kompyuterga aylandi.

2007-yil Kanadada hech qachon yutkazmaydigan shashka dasturining yaratilishi sun'iy intellektlarning yil sayin rivojlanib borayotganining isbotidir.

2017-yil Go o'yinida ham Alphago texnologiyasi insonlar ustidan muvaffaqiyat qozongan.

Biz foydalanayotgan sun'iy intellektlarning bir qancha turlari mavjud.

Birinchi turi – kuchsiz intellekt.

Ma'lum vazifa uchun kodlangan tur hisoblanadi. U o'z huquqlaridan tashqariga chiga olmaydi. Bizning davr aynan kuchsiz sun'iy intellektlar davri hisoblanadi. Til tarjimonlari, virtual yordamchilar, o'zi harakatlanadigan mashinalar, spam-filterlar bunga misol bo'la oladi.

Ikkinchi turi – kuchli intellektlar.

Ular inson bajarishi mumkin bo'lgan har qanday vazifalarni amalga oshirishi mumkin.

"Temur odam" filmidagi yordamchi Jarvis bu turdag'i intellektga misol bo'la oladi. Lekin hozirgi kunda bunday intellektlar mavjud emas, ularning ba'zi ishlanmalari borligigina ma'lum. Shu sababli bu turdag'i texnologiyani kelajakka dahldor deyishimiz mumkin.

Uchinchi turi – super sun'iy intellekt .



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Bu tur barcha sohalarda insondan yuqori turuvchiligi va ulardan yuksak natijalar ko'rsatishni ko'zlovchi fenomenni nazarda tutadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, biz ko'rib turgan sun'iy texnologiyalar eng kuchsiz intellekt deya e'tirof etiladi. Shunga qaramay, bu chegarani kesib o'tishga harakat qilayotgan izlanuvchilar talaygina. Agar shu asnoda davom etsa, inson o'z qobig'i doirasida zaif intellekt egasi sifatida qolib ketadi. Ko'plab ishlarga aqli sun'iy intellektlar qabul qilinishi natijasida minglab insonlar ishsiz qolish xavfi kelib chiqmoqda. Ushbu texnologiyalarning rivojlanishi xavfi insoniyat tanazzuli bilan belgilanishi mumkin. To'g'ri, bu texnologiyalar mablag'ni, vaqtini tejashi, ish sifati va tezligini yaxshilashi foydali bo'ladi. Lekin uning bashariyat tafakkuriga salbiy ta'siri mavjudligiga ko'z yumishning ham iloji yo'q.

Ilon Mask : " Sun'iy intellektning yaratilishi kuchli jinni chaqirish bilan barobar bo'lishi mumkin. Agar insoniyat uning boshqaruvini qo'ldan boy bersa, katta falokatlarni keltirib chiqaradi " deya bejiz aytmagan deyishimiz mumkin.

Al yordamida nemis bastakori Betxovenning 10-simfoniyasi yakunlangani, "Boburnoma " asarining illustratsiyasi yaratilgani o'ziga xos imkoniyatlari darajasini yuqorilaganidan dalolat beradi.

2060-yilga kelib, insonlar bajarishi mumkin bo'lgan ishlarning deyarli barchasini sun'iy intellekt texnologiyalari egallashi mumkinligiga qay darajada baho berishga kishi taajjublanadi.

Shunday ekan, sun'iy intellektning sotsial hayotimizda tutgan o'rni va ahamiyati kun sayin ortib borishi natijasida u tufayli paydo bo'ladigan xatar darjasini ham qanchalik ekanligini sezishimiz mumkin bo'lmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, sun'iy intellekt texnologiyalarining hammasi ham inson omiliga salbiy ta'sir etmaydi, valki ularning amaliy yordamchisiga aylanishi ehtimoldan holi emas. Bunday texnologiyalardan to'g'ri va muvaffaqiyatli foydalanish har kimning o'ziga havola.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Askarova S.M. THE MUTUAL INFLUENCE OF MUSIC AND SPEECH ON THE AFFECTIVE (EMOTIONAL) SPHERE OF STUDENTS // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). 93-96
2. Аскарова Ш. ПРИНЦИПЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ // Экономика и социум. 2021. №4-1 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-effektivnosti-informatsionnoy-bezopasnosti> (дата обращения: 15.06.2023).
3. Якубов, М. С., & Аскарова, Ш. М. (2022). Особенности использования информационных ресурсов интернета. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 4, 10-16.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



4. Askarova, S. M. (2022). KOMPYUTER VA INTERNETGA QARAMLIKNING YOSH AVLODGA TA'SIRI VA UNDAN TO'G'RI FOYDALANISH OMILLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 72-77.
5. Askarova, S. M. (2022). TALABALARING MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1067-1071.
6. Askarova, S. M. (2023). BUTUNJAHON UNTERNET TARMOG'IDAN MAQSADLI FOYDALANISH VA YOSH AVLODDA NETIKET TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATS/YALAR VA ILMIY TADQ/QOTLAR JURNALI, 2(16), 170-172.
7. Аскарова, Ш. М. (2018). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ ПРЕДМЕТОВ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)* (pp. 1221-1225).
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-mutual-influence-of-music>
9. <https://president.uz/oz/lists/view/3675>
10. <https://m.daryo.uz/2023/08/13/telefonlar-bizni-halok-qiladimi-yoxud-mobil-telefonlar-haqidagi-beshta-ommabop-mif/>
11. <https://squeezegrowth.com/uz/instagram-marketing-statistics/>
12. <https://xs.uz/uz/post/facebook-fojdalanuvchilari-soni-25-milliardga-etdi>

